



**FRANSUZ TILI TOVUSHLARDAGI TARIXIY O'ZGARISHLAR**

Mamasoliyeva Gulchexra Abduxalilovna

*Andijon davlat chet tillar instituti Frantsuz tili*

*nazariysi va amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi*

**Kanjaboeva Maftuna**

*Andijon davlat chet tillar instituti*

*Роман-герман ва славян тиллари факультети III босқич талабаси*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada fransuz tilining tarixiy fonetikasi evolyusiyasi ya'ni fransuz tilining til sifatida shakllanishining tarixiy jarayonlari tahlil qilingan.

**Tayanch so'zlar:** o'rta asr, so'z kategoriyalari, fonografiya, tabiiy evolyusiyasi, talaffuz taraqqiyot darajasi.

Yer yuzida insoniyat bor ekan, ular o'rtasidagi aloqa vositasi bo'lgan tillar ham xamisha rivojlanishda davom etaveradi. Insonlar uchun ravshan bo'lgan nutq orasidagi o'zaro munosabatlar ham taraqqiyot darajasini belgilab beradi. Bunga misol qilib biz fransuz tili unlilari va urg'ularidagi o'zgarishlar haqida fikr yuritamiz..

Zamonaviy fransuz tilida sodir bo'lgan fonetik o'zgarishlar ko'p sonli emas, ammo ularning ayrimlari tilning butunlay qiyofasini o'zgartirish uchun etarli umumiylar mazmunga ega. Bu o'zgarishlar asosan o'rta davr deb atalgan vaqtida sodir bo'lgan. Bu davr 1300 va 1600 yillar oralig'iga to'g'ri keladi. Bundan tashkari keyinchalik XVII asrdan boshlab tildagi ayrim so'z kategoriyalari o'rtasidagi jiddiy farqlanishlar ro'y berdi. Bu narsa nazariyotchi olimlar va fonografiya ta'siri ostida sodir bo'lgan. Bu esa ko'pincha tovushlarning tabiiy evolyusiyasini buzgan yoki halaqit qilgan.

Urg'u xuddi eski fransuz yoki lotin tillaridagi bo'g'inda qanday bo'lsa, shunday kolgan. Ammo o'zaro so'zlashuv tilida urg'uni alohida so'zlarga emas, balki so'zlar birikmasiga qo'yishga bo'lgan intilishi kuchaygani kuzatilmokda. Masalan, mana bunday ko'shilgan birikma les grands hommes "buyuk odamlar" birikmasi fakat bitta urg'uga ega bo'lsa, ammo les hommes grands "baland (yuksak) odamlar" birikmasida ikkita urg'uni kuzatamiz. Il y avait | une fois| un vieux roi| qui n'avait pas| d'enfants| "bor ekan, yo'q ekan, qari bir qiroq yashagan ekan, uning bolalari yo'q ekan" – gapida aslida faqatgina 5 ta urg'u bo'lib, ammo so'zlar o'n to'rttani tashkil qiladi. Tilning qiyofasiga ta'sir qiluvchi boshqa bir omil bu talaffuz o'rnatish bo'lib (asosan parij talaffuziga xos), ushbu talaffuz eski shevalar ta'sirida Fransiyaning ayrim joylarida hanuzgacha saqlanib qolgan. Faqatgina urg'u ostida aniqlanishi mumkin bo'lgan narsa, ya'ni unlilarga talaffuz davomiyligi ham hamma joyda ham bir xil emas: janubda u o'rtacha soniyaning yettidan bir ulushini, shimolda esa – beshdan bir ulushini tashkil etadi.

Quyida tovush sifatining muhim o'zgarishlari ko'rsatilgan, ushbu unlilar turli holatlarda shunday o'zgarishlarga duchor bo'ladi.

a) O'rta asrlarning oxiridan boshlab unlilar quyidagi holatda o'zgarishni boshidan kechirdi: "s" dan oldin + undosh . Bu holatda e yanada cho'ziqroq bo'lib qolgan . « Тесте



so'zi « tête » ya'ni o'zbek tilidagi "bosh" so'ziga aylanib qolgan va boshqalar. Til oldi ө tovushi , til orqa ө tovushiga o'zgarib, cho'ziq talaffuzni talab qilgan. . Misollarda ko'rib chiqamiz: paste, asne, cöste so'zlari pâte "xamir", âne "eshak", sôte "qirg'oq" kabi talaffuz qilina boshlagan. Shunday o'zgarishlarga, yozuvda aks etmasada, "a" va "q" so'z o'rtaSIDA ikkita oldidagi holatda va so'z oxirida reduksiyaga uchraganning oldiga duchor bo'ldi. Bunga casse "kassa " so'zini misol qilishimiz mumkin. Qadimgi fransuz tilida « gras » yog'li, « os » suyak , « fosse » chuqur so'zlardagi unlilar fosse so'zi talafuzi shaklida bo'lgan. , Xuddi shu narsa ө ning z dan oldingi holatida ham sodir bo'ldi.

Shevalarga xos bo'lgan shouse talaffuzi sharq va g'arbda uchrab turadigan shevalardagi talaffuzlarda, hatto saroyda ham ildiz otdi va XVI asrda yetakchi bo'lishiga sal koldi . Bundan yuqoridagi talaffuzlar butun Fransiya bo'ylab uchraydigan degan xulosaga kelish kerak emas.

Normandiyada, hatto Parijda ham ko'pincha "tête" o'rniga "tete" ni eshitish mumkin. Janubliklarda faqatgina bitta "a" bo'lib, u old va orqa oralig'ida talaffuz etiladi. patte ("panja") va pâte ("xamir") kabi yo'llarni yaxshi farqlashmaydi; sharkda, Lion va Parijda quyidagi qabi so'zlarda "a" o'rniga "ä" ni ko'llash odat tusiga kirgan: table ("stol"), flatte ("alanga"), orage ("momaqaldiroq"), ushbu so'zlar u yerda tâble, flâtte, orâge tarzida talaffuz qilinadi.

Janublik fransuzlar "o" tovushini "z" hamda va qo'sh undosh (ikkilangan) "s" undoshlari oldidan ochiq va qisqa talaffuz qilishda holatini hanuzgacha davom etayotganini chöse, röse, fosse, grosse – "semiz", "yo'g'on" kabi so'zlarida kuzatish mumkin. Ko'pincha kuzatish natijasida quyidagi so'zlarda "o" tovushini : autre "o'zga", épaule "elka", ushbu so'zlarni ular "otre", "épôle" tarzidagi talaffuzni eshitish mumkin, yoki aksincha esa "röbe" so'zini "robe" kabi talaffuz kilishadi.

b) XVI asrda ro'y bergen oddiy talaffuzidagi o'zgarishlar sekin-asta o'rnashib koldi, bu "e" ga nisbatan ro'y berdi: "ę" diftongi "ie" ga va "q" esa yangi "œ" tovushiga o'zgardi. Har doim ochiq bo'g'inda keluvchi unlilar endi talaffuz etilmaydigan unlilar bevosita oxirgi holatida yoki soqov undosh oldida yopiq tovush bo'lib koldi, ammo talaffuz kilinadigan undoshlar oldida ochiq tovushga aylandi.

Shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, yillar, asrlar va ma'lum bir davrlardan tortib hozirgi davrgacha tildagi katta o'zgarishlarni, ayniqsa tovushlar o'rtaSIDIgi o'zgarishlar kuatishimiz mumkin. Bu esa til hamisha harakatda, o'zgarishda va rivojlanishda ekanligidan daollat beradi.

### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Mamasolieva G. A. **ФРАНЦУЗ ТИЛИ ТАРИХИЙ ФОНЕТИКАСИНИ ЎРГАНИШ ТАРИХИДАН**. Scientific Bulletin of NamSU-Научный вестник НамГУ-  
NamDU ilmiy axborotnomasi-2022-yil\_10-son

2. Annick ENGLEBERT. Phonétique historique et histoire de la langue. Paris : septembre 2015. 2e édition 2. X. Нематов. "Ўзбек тили тарихий фонетикаси" Тошкент 1992.



3. Janyne Capdeville .”Petite histoire de la langue française” Université de Pau et des Pays de l’Adour, France
4. Michèle Perret.. Introduction à l’histoire de la langue française. 5e édition Armand Colin 2020
5. Brunot F., “Histoire de la langue français”, Paris, Éditions A. Colin, 1966-67
6. Ирина Александровна Подтергера. “Что такое история языка?” Slavisches Seminar der Albert-Ludwigs-Universität Freiburg Werthmannstr. 14 .2015
7. Мамасолиева, Г. А. (2023). ФРАНЦУЗ ВА ТИЛИ УНЛИЛАРНИНГ СИНТАГМАТИК ҲОЛАТДАГИ ДАРАЖАЛИ МУНОСАБАТИ. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(5), 2388-2396.